

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.1.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

DADABAYEV SHAVKAT XAMIDOVICH

TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBİ VA TAHLILINI XALQARO
STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2025 yil

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2018.1.PhD/Iqt518 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasida
(www.issue.uz) va «Ziyoune» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyoune.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor v.b.

Rasmiy opponentlar:

Ibragimov Abdugapur Karimovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mamatkulov Murodjon Shukurovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
DSc.03/10.12.2019.1.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «2» 07 soat 12 ⁰⁰ daqi
majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871)
239-28-10, faks: (99871) 239-43-51 e-mail: ilmiykengash@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish
mumkin (67 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov
ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-10, faks: (99871) 239-43-51 e-mail: kutubxona@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025- yil «25» 06 kuni tarqatildi.

(2025- yil «25» 06 daqi 55 raqamli reestr beyonnomasi).



S.U. Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, iqtisodiyot fanlari doktori,

professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori,

professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sanoat ishlab chiqarish tarmog'i ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga, ilmiy va texnik taraqqiyotga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri hisoblanadi. Sanoat tarmog'ida qayta ishlash sohasi yuqori ulushga ega. Xalqaro taqqoslash ma'lumotlariga ko'ra, "dunyo mamlakatlarida 2023-yilda qayta ishlash sanoatining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi Fransiyada-85 %, Germaniya Federativ Respublikasida-77 %, Italiyada-76 %, Rossiya Federatsiyasida-68 %, Qozog'iston Respublikasida-qariyb 40 % va O'zbekiston Respublikasida-78,1 %ni tashkil etganligini ko'rsatib o'tish mumkin".¹ Ushbu sanoat ishlab chiqarish tarmog'ida aylanma mablag'lar, shu jumladan, tovar-moddiy zaxiralar asosiy o'rinni egallaydi, shu sababli ularning hisobini xalqaro talablar darajasida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobini tashkil etish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro talablar darajasida taqdim etish va uning ko'rsatkichlarini tahlil qilish, tahliliy axborotlardan foydalanish natijasida sanoat tarmog'ining samaradorligini oshirish va raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Xalqaro darajada sanoat ishlab chiqarish amaliyotida aylanma mablag'lar tarkibida tovar-moddiy zaxiralarning asosiy salmog'i o'rtaacha 55-72 foizni tashkil etmoqda. Shu sababli tovar-moddiy zaxiralar hisobini to'g'ri yuritish, uni xalqaro talablariga moslash, ularni tahlil qilishni amalga oshirishda xalqaro tajribadan keng foydalanish alohida yondashuvni talab etadi. Ushbu maqsadda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini qo'llash va moliyaviy hisobotlarning shaffofligini ta'minlash imkoniyatini yaratadi hamda ulardan samarali foydalanishni tahlil qilish masalalari dolzarb masalalar sirasiga kiradi.

O'zbekistonda sement ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar nisbatan yuqori likvidli aktiv hisoblanib, ular ustidan aniq, tezkor hisobni tashkil qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahlilni amalga oshirish alohida masalaga aylanib qolmoqda. Xususan, tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobini tashkil qilish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda uning texnologik xususiyatlarini hisobga olish, haqqoniy qiymatini baholash uslubini, ularning harakatini hisobga olishni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilangan tartibda tashkil qilish hamda moliyaviy hisobot shakllarida shu talablar asosida aks ettirilishi muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, keyingi yillarda O'zbekistonda MHXS keng joriy etishda milliy hisob tizimini xalqaro tizimga moslashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan, 2-sonli "Zaxiralar", 15-sonli "Xaridorlar bilan shartnomalar bo'yicha tushum", 36-sonli "Aktivlarning qadrsizlanishi" MHXS va boshqa standartlarda tovar-moddiy zaxiralarning holati, yetarliligi, ularning qoldiqlari, biznes rejadagi asosiy o'rni kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Biroq, jahonda tovar-moddiy zaxiralarning turlicha talqini, ularni hisobda aks ettirish, baholash va tahlil qilishning uslubiy

¹ <https://w3.unece.org>

jihatlarini xalqaro standartlar talablari asosida tashkil etish bilan bog'liq ayrim masalalar hozirgacha o'zining ijobiy yechimini topmagan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilidagi axborotlarni xalqaro standartlar talabi darajasiga muvofiqqlashtirish masalasi tanlangan tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2022-yil 10-noyabrda 61-son "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2024-yil 8-oktabrdagi 181-son "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish muddatlari hamda ularning tarkibi va mazmuni to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i hamda mazkur sohaga oid boshqa qator meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Iqtisodiyot tarmoqlarida tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobi va tahlili uslubini takomillashtirish mavzusiga doir muammolarning turli jihatlarini mamlakatimiz va xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu mavzu bo'yicha xorijlik olimlardan: V.G. Artemenko, X. Anderson, B. Nidlz, D. Kolduell, M.I. Bakanov, M.V. Melnik, A.D. Sheremet, M.I. Bakanova, O.V. Yefimova, Y.A. Babayev, A.M. Petrov, K. Druri, L.T. Gilyarovskaya, A.A. Vexoreva, G.V. Savitskaya I.O. Yegorcheva, A.V. Grachev, R.S. Sayfulin, YE.S. Stoyanova kabilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan².

O'zbekistonda ham qator iqtisodchi-olimlar tomonidan tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahliliga doir ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Jumladan, I.T. Abdulkarimov, M.Q. Pardayev, E. Akramov, R.D. Do'smurov, A.K. Ibragimov, A.A. Karimov, Sh. Xaydarov, A.X. Pardayev, B.A. Xasanov,

M.E. Pulatov, H. Tuxsanov, I.N. Qo'ziyev, Sh.U. Xaydarov, X.A. Ortiqov, B.Y. Maqsudov, M.B. Kalonov, F.T. Abduvaxidov, U.A. Nurmanov, N.R. Rahmonov, A.N. Achilov kabi olimlarning ilmiy ishlarida ham mazkur yo'nalishning ma'lum uslubiy tomonlari bayon etilgan³. Ammo ushbu izlanishlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlili uslubiy qurilish materiallari ishlab chiqarish tarmog'ida o'ziga xos jihatlarini kompleks tarzda chuqur tadqiq etilmagan.

Tadqiqotlarga ko'ra, olimlar va mutaxassislarining ilmiy ishlanmalarida asosan, xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralari hisobi, mahsulot tannarxiga ta'sirining tahlili, tovar-moddiy zaxiralar bilan ta'minlanishi va ularning tahliliga oid masalalar qarang chiqilgan. Biroq, ushbu ilmiy ishlanmalarda raqamli iqtisodiyot tizimini keng joriy etish sharoitida tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini zamon talablaridan kelib chiqqan holda, ilmiy hamda uslubiy jihatdan takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmagan. Bu holatlar mazkur dissertatsiya mavzusini tanlash va ilmiy tadqiqot vazifalarini belgilashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq FM-6-sonli "O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit va statistika sohalari taraqqiyotining konseptual yo'nalishi" mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mazmuni, ularning o'ziga xos xususiyatlarini asoslash va ularni foydali qazilmalarni hisobga olgan holda baholash hamda buxgalteriya hisobini yuritishning takomillashtirish tartibini ishlab chiqish;

³ Do'smurov R.D. "Buxgalteriya hisobi nazariyasi" Darslik. -T.: "Yangi yul polygraph service", 2020. -495b. Xasanov B.A., Xashimov A.A. va boshq. "Buxgalteriya hisobi" Darslik. -T.: "Shard", 2021. -720 b. Pardayev M.Q. "Iqtisodiy tahlil nazariyasi" Darslik. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. -588 b. Abdusolomova N.B. "Buxgalteriya hisobi" Darslik. -T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021. -944 b. Ibragimov A.K. va boshq. "Tijorat banklarida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari". Darslik. -T.: "Iqtisod-Moliya", 2020. -560 b. Do'smurov R.D., Rizaev N.K., Nazarov X.H. - "Moliyaviy hisobot va auditning xalqaro standartlari". O'quv qo'llanma. -T.: 2020. -b. Tashnazarov S. "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari" Darslik. -T.: 2019. -555 b. Karimov A.A. va boshqalar. "Moliyaviy hisob va hisobot". -T.: "Iqtisod-Moliya", 2018. -496 b. Karimov A.A. Kurbanbayev J.YE. Jumanazarov S.A. "Buxgalteriya hisobi va hisobot". -T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. -624 b. Xaydarov Sh.K., Tuxsanov H. "Tovar-moddiy zaxiralarning tashkil va ularning buxgalteriya hisobi uslubiy asoslari // Soliq solish va buxgalteriya hisobi. -2006. -№ 4. -6 b. Qo'ziyev I.N., Abduvaxidov F.T. Buxgalteriya hisobi: Darslik. -T.: TDU, 2018. -445 b. Kalonov M.B. Daromadlar va xarajalar hisobi hamda tahlili uslubiyoti: monografiya. T.: Iqtisod-Moliya, 2019. -275 b. Nurmanov U.A. Joriy aktivlar hisobi va tahlilini takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss avtoreferat. BMA, -T.: 2012-28 b. Rahmonov N.R. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditni takomillashtirish. i.f.n. ilmiy darajasi olish uchun yozilgan diss avtoreferat. BMA, -T.: 2010. -28 b. Achilov A.N. Kimyo sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish 08.00.08 - "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit". Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati, TMI, -T.: 2019. -28b

² Artemenko B.G. Финансовый анализ. Изд. Дом «Сибирское соглашение», 2014. - 236 с., Андерсон Х. Нидлз Б. Колдуэлл Д. Принципы бухгалтерского учета. -М.: Финансы и статистика, 2004. -497 с., Баканов М.И., Мельник М.В., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа: учебник / под ред. Баканова М.И. - 7-е изд., перераб. и доп. - М.: Финансы и статистика, 2019. -548 с., Ефимова О.В., Мельник М.В. Анализ финансовой отчетности. -М.: Омега-А, 2016. -449 с., Бабаев Ю.А., Петров Л.М. Международные стандарты финансовой отчетности. -М.: ИНФРА-М, 2017. -398с., Вехорева А.А. Анализ и прогноз деятельности учета. Учебник. 6-е изд., перераб. и - М.: 2020. - 973 с., Гильярдовская Л.Т., Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности. Учебник. - Минск: «Новое знание», СПб: Питер, 2016. 342 с., Сайфуллин Р.С. Методика финансового анализа. - М.: ИНФРА-М, 2002. - 179 с., Финансовый менеджмент: теория и практика/ Под ред. Столяковой Е.С. 7-е изд., перераб. и доп. - М.: Перспектива, 2015. -714 с.

tovar-moddiy zaxiralarni tashib keltirish, tayyorlash va omborxonada saqlash xarajatlarini alohida maxsus ishchi schyotlarda yuritish tartibini ishlab chiqish va ularni hisob siyosatiga kiritishga doir ilmiy tavsiyalarni asoslash;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish va ulardan foydalanishga doir boshlang'ich hisobning aniqligini ta'minlash va tashkil etish yo'llarini asoslash hamda ularni yuritishga oid takomillashtirilgan ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

tovar-moddiy zaxiralar hisobini xalqaro standartlar asosida baholashni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda moliyaviy hisobotni shakllantirish usullarini takomillashtirish yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan takliflarni ishlab chiqish;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tasnifini ishlab chiqish va ularni multiplikativ modeldan foydalangan holda iqtisodiy tahlilning zanjirli almashirish usulini qo'llab har bir omilning ta'sirini aniqlash ustubini yaratish va uni amaliyotda sinab ko'rish;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish bo'yicha ishchi schyotlar rejasida yangi 1210-"Tashib keltirish xarajatlari", 1220-"Tayyorlash xarajatlari" va 1230-"Omborxonada saqlash xarajatlari" schyotlarini qo'llashni ilmiy-amaliy jihatdan asoslash va amaliyotga taklif etish;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish va sarflashga oid boshlang'ich hisobni yuritish aniqligini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida baholash orqali mahsulot tannaxrini aniqlash va hisobini yuritish bo'yicha takomillashgan ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zsanatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobi va hisoboti olingan.

Tadqiqotning predmeti tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya va deduksiya, zamon va makon, analiz va sintez, tizimli tahlil, guruhlash, ekspert baholash, statistik tahlil, prognozlash, zanjirli almashirish, additiv, multiplikativ va kasrli modellar, mantiqiy tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ustubiy yondashuvga ko'ra "tovar-moddiy zaxiralar" tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda hisobdorlikni ta'minlash, hisob obyektlarini tan olish va foydali qazilmalarni baholash uslublaridan bilvosita yondashuv asosida foydalanishga ko'ra takomillashtirilgan;

tovar-moddiy zaxiralarni tashib keltirish, tayyorlash va omborxonada saqlash xarajatlari 1210-"Tashib keltirish xarajatlari", 1220-"Tayyorlash xarajatlari" va 1230-"Omborxonada saqlash xarajatlari" ishchi schyotlarida hisobga olish orqali ularning tannaxrini to'g'ri aniqlashga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish taklifi asoslangan;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda meyyordan ortiq transport tayyorlov xarajatlarini korxona xarajatlarga mutanosib ravishda taqsimlashda davriy tizimda yuritish orqali xarajatlari va ularning iqtisodiy elementlariga ko'ra guruhlashga mosligi hamda obyektivligini ta'minlash asoslangan;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi ishlab chiqish hamda ilk bor multiplikativ modeldan foydalangan holda iqtisodiy tahlilning zanjirli almashirish usulini qo'llash asosida har bir omilning ta'sirini aniqlash ustubiyoti takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olish bo'yicha ishchi schyotlarni, ya'ni sintetik va analitik schyotlar tarkibini tasdiqlash orqali ma'lumotlarni umumlashtirish jarayonini soddalashtirish, hujjatlar aylanish grafignini tasdiqlash asosida hisobdorlikni ta'minlash, hisob obyektlarini tan olish va baholashning uslublaridan bilvosita yondashuv asosida foydalanishga xizmat qilgan;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni qabul qilish va sarflashga oid hisobni yanada aniqligini ta'minlashda aktivlarni to'g'ri saqlash, moddiy va moliyaviy resurslardan tejamlil va samarali foydalanish, amaldagi qonunlar hamda ichki hujjatlar talablariga rioya qilish, belgilangan rejalarni bajarish, buxgalteriya hujjatlarini, moliyaviy hisobotlar va boshqaruv axborotining to'liqligi hamda to'g'riligini ta'minlash, tavakkalchiliklar yuzaga kelganda xavflarni aniqlash, tahlil qilish va zarur qarorlar qabul qilish, xarajatlari va ularning tannaxriga mosligi hamda obyektivligini ta'minlash imkoniyatini bergan;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq, tovar-moddiy zaxiralarni baholash mahsulot tannaxrini haqqoniy shakllantirishga va buxgalteriya hisobi hamda hisobotlarida to'g'ri aks ettirilishini ta'minlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan ustubiy yondashuv va usullarning umumiy tan olinganligi hamda maqsadga muvofiqligi, normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanilganligi, foydalanilgan adabiyotlar va internet ma'lumotlarining rasmiyligi, "O'zsanatqurilishmateriallari" uyushmasi faoliyatiga oid ma'lumotlarning rasmiy moliyaviy hisobotlardan olinganligi, xulosa, ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning normativ-huquqiy hujjatlar hamda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini takomillashtirishda nazariy-metodologik manba

sifatida, "Moliyaviy hisob" hamda "Moliyaviy tahlil" fan dasturlarini ilmiy va nazariy jihatdan takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati uning natijalaridan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini takomillashtirish, shuningdek, uyushma tarkibiga kiruvchi korxonalarga tegishli normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, dasturlar, chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda hamda ularni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

ustubiy yondashuvga ko'ra "tovar-moddiy zaxiralar" tushunchasining iqtisodiy mazmuni qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda hisobdorlikni ta'minlash, hisob obyektlarini tan olish va foydali qazilmalarni baholash uslublaridan bilvosita yondashuv asosida foydalanishga ko'ra takomillashtirish bilan bog'liq nazariy-uslubiy ishlanmalar oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Buxgalteriya hisobi" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2021-yil 23-noyabrda 500-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda sanoat korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish, ularni baholash, joriy hisobni yuritish va hisobotda aks ettirish, ichki nazorat hamda tahlil tizimini tashkil etish, tovar-moddiy zaxiralar hisobining asosiy tamoyillari yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

tovar-moddiy zaxiralarni tashib keltirish, tayyorlash va omborxonada saqlash xarajatlari 1210-"Tashib keltirish xarajatlari", 1220-"Tayyorlash xarajatlari" va 1230-"Omborxonada saqlash xarajatlari" ishchi schyotlarida hisobga olish orqali ularning tannarxini to'g'ri aniqlashga oid tahliliy buxgalteriya axborotlarini shakllantirish taklifi "O'z sanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga joriy etilgan ("O'z sanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2024-yil 5-dekabrda 04/05-3755-sonli ma'lumot-nomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "O'z sanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlarni hisob siyosatida taklif etilgan yangi ishchi schyotlarni qo'llash orqali xomashyo va materiallarni tashib keltirish, tayyorlash va saqlash bilan bog'liq xarajatlarning yanada aniqligi hamda ularning hisobini yuritish uslubiy jihatdan takomillashuvi ta'minlangan;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda meyyordan ortiq transport tayyorlov xarajatlarni korxona xarajatlarga mutanosib ravishda taqsimlashda davriy tizimda yuritish orqali xarajatlar va ularning iqtisodiy elementlariga ko'ra guruhlashga mosligi hamda obyektivligini ta'minlash taklifi "O'z sanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga joriy etilgan ("O'z sanoatqurilishmateriallari" uyushmasining

2024-yil 5-dekabrda 04/05-3755-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida uyushma tarkibiga kiruvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralarning boshlang'ich hisobini yuritish hamda meyyordan ortiqcha transport-tayyorlov xarajatlarni mutanosib ravishda korxona xarajatlarga taqsimlash tovar-moddiy zaxiralar hisobini davriy tizimda yuritish aniqligi ta'minlangan;

qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar tasnifini ishlab chiqish hamda ilk bor multiplikativ modeldan foydalangan holda iqtisodiy tahlilning zanjirli almashirish usulini qo'llash asosida har bir omilning ta'sirini aniqlash uslubiyotini takomillashirish taklifi "O'z sanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatiga joriy etilgan ("O'z sanoatqurilishmateriallari" uyushmasi 2024-yil 5-dekabrda 04/05-3755-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida sement ishlab chiqaruvchi korxonalarda material xarajatlari va mahsulot tannarxi tahlilini amalga oshirishda sarflanadigan vaqt miqdori 5 foizga tejalgan hamda mahsulot ishlab chiqarish tannarxini 0,4 foizga tejash imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobat siyosi. Mazkur tadqiqot natijalari 19 ta, jumladan, 2 ta hammaulliflikdagi "Buxgalteriya hisobi" nomli darslik, 1 ta xalqaro, 4 ta mahalliy maqola, 7 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan hamda ijobiy xulosalar olingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta, shundan, 4 ta mahalliy, 1 ta nufuzli xorijiy jurnalda ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiya hajmi 150 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zururligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijasida olingan xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar talab darajasida keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida **"Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilini tashkil qilishning nazariy asoslari"** qarab chiqilgan. Mazkur bobda qurilish materiallari ishlab chiqarishning iqtisodiyotda tutgan o'rni ochib berilgan, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar hisobi va tahlilining nazariy asoslari, ularni

baholash tartibi va unda yuzaga keladigan muammolar, tovar-moddiy zaxiralar tahlilining moliyaviy holat ko'rsatkichlari bilan bog'liq nazariy muammolar, ularning yechimlari bo'yicha buxgalteriya hisobi va tahlilini tashkil etishning xususiyatlari, tamoyillari hamda yo'nalishlari tadqiq etilgan.

Bugungi kun talabidan kelib chiqib, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mazmuni, ularning o'ziga xos xususiyatlari asoslandi va ularni foydali qazilmalarni hisobga olgan holda baholash hamda buxgalteriya hisobini yuritishning takomillashgan tartibi ishlab chiqilgan. Bunda asosiy masala tovar-moddiy zaxiralar tushunchasini nazariy jihatdan asosli hisoblanishini inobatga olib, ushbu masala bo'yicha olimlar fikrlari ham o'rganildi.


Tadqiqotlarimizga ko'ra, tovar-moddiy zaxiralarning mazmuni bo'yicha turli fikrlar mavjud ekan. Jumladan, N.R. Raxmonov tomonidan ushbu tushunchaga quyidagicha fikr bildirilgan: "tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobida yuritish jarayonida quyidagi baholarda qabul qilish mumkin. Hisobot davrining oxiriga borib tovar-moddiy zaxiralar buxgalteriya balansida foydalanilayotgan zaxiralarni baholash usullaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan qiymat bo'yicha aks ettiriladi. Ya'ni, balansdagi tovar-moddiy zaxiralarning qiymati ularni baholashning korxona hisob siyosati tomonidan tanlangan usuliga bevosita bog'liq".

Tadqiqotchi A.M. Achilov esa tovar-moddiy zaxiralarni quyidagicha ta'riflash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi: "Tovar-moddiy zaxiralar bu - ishlab chiqarish korxonalarining aylanma mablag'larning tarkibidagi moddiy aktivlar, ya'ni korxonalarining aynan bir mahsulot turlarini yaratish xususiyatlaridan kelib chiqib, xomashyolar, yarim tayyor mahsulotlar, kimyo sanoati korxonalaridagi reagentlar, tayyor mahsulotlar, sotish uchun mo'ljallangan tovarlar, tugallanmagan ishlab chiqarish hamda qayta ishlashga mo'ljallangan kimyoviy chiqindilardan iborat".⁴ Bu o'z navbatida birinchi qarashga nisbatan ancha farq qiladi.

Bulardan ko'rinib turibdiki, mavzuga oid adabiyotlarda va boshqa manbalarda tovar-moddiy zaxiralar atamasi bo'yicha ko'plab fikrlar bildirilgan. Ularning ba'zilari mazmun jihatdan bir-birlariga mos kelsada, ayrimlari ma'lum darajada farqli tomonlariga ham ega. Bu esa, o'z navbatida ushbu atamani ilmiy jihatdan aniq va to'liq ochib berilmaganligini ko'rsatadi. Mazkur holat tovar-moddiy zaxiralar atamasining mazmunini sanoat korxonalarini faoliyatining xususiyatidan kelib chiqib, ilmiy asoslangan ta'rifni shakllantirishni talab etadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, Tovar-moddiy zaxiralar tushunchasining takomillashgan ta'rifini ishlab chiqildi. **Tovar-moddiy zaxiralar deganda, baholangan foydali qazilmalar, inventar-jihozlar, xomashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, tayyor mahsulotlar hamda sotish uchun mo'ljallangan tovarlar bo'lib, ular bir yil davomida saqlab turiladigan yoki bir texnologik qayta ishlab chiqarish**

jarayonida o'z qiymatini yaratilayotgan mahsulot (ish va xizmat)larga qisman yoxud to'liq o'tkazib boruvchi aktivlar majmui tushuniladi, degan ta'rif berildi.

Ushbu ta'rif asosida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarni iqtisodiy mohiyatiga ko'ra quyidagicha turkumlash maqsadga muvofiqligi asoslandi (1-rasm).



1-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarning turkumlanishi⁵

Ushbu ta'rif va turkumlash qurilish materiallari ishlab chiqarishdagi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini tashkil etish, ularni baholash, joriy hisobni yuritish va hisobotda aks ettirish, ichki nazoratni va tahlil tizimini tashkil etish, tovar-moddiy zaxiralarni boshqarish talablariga javob beradi, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar hisobining asosiy tamoyillariga ham mos keladi. Shunday qilib, buxgalteriya hisobini ushbu tartibda yuritish va materiallar hisobotini tayyorlash natijasida tovar-moddiy zaxiralarni hisobini to'g'ri va samarali tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, har doim ham qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan ehtiyojning meyori, ularni qoldiqlari va bahosiga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Natijada, bunday mablag'lar uchun ortiqcha, ya'ni ko'zlangandan ko'ra, bir necha barobar ko'proq mablag'lar sarflanadi. Shu sababli ularni tarkibini tahlil qilish natijasida optimal qoldiqlarini aniqlash korxonaning moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi. Buni, qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi subyektlar misolida ko'rish mumkin. Tovar-moddiy zaxiralarning 2019-2023-yillarda aktivlar tarkibidagi ulushi o'zgarishida ham ko'rish mumkin (1-jadval).

⁴Raxmonov N.R. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtrish. 08.00.08 - "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasi olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: BMA, 24 b. B.15
⁵Achilov A.M. Kimyo sanoati korxonalarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtrish 08.00.08 - "Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit" iqtisodiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T.: TMI, 2019. -288. B.14

1-jadval
O'zbekistondagi qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi aksiyadorlik jamiyatlarida TMZ tarkibining tahlili (mln.so'm hisobida)⁷

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021	2022	2023
1.	"Quvasoytsement" AJning barcha aktivlari	228150	218063	245811	264942	286473
1.1.	TMZning umumiy summasi	59155	61442	65548	74681	75468
1.2.	TMZning barcha aktivlardagi salmog'i	25,9	28,2	26,7	28,2	26,3
2.	"Qizilqumsement" AJning barcha aktivlari	1690017	2180911	2648062	2757081	2896543
2.1.	TMZning umumiy summasi	413055	445628	486592	514834	592384
2.2.	TMZning barcha aktivlardagi salmog'i	24,4	20,4	18,4	18,7	20,5
3.	"Bekobodsement" AJning barcha aktivlari	255960	265447	274544	294658	304543
3.1.	TMZning umumiy summasi	69859	69438	72486	93857	104791
3.2.	TMZning barcha aktivlardagi salmog'i	27,3	26,2	26,4	31,9	34,4
4.	"Oxangaronsement" AJning barcha aktivlari	1686701	1990735	2029330	2345689	2438953
4.1.	TMZning umumiy summasi	206334	235684	264895	298759	305684
4.2.	TMZning barcha aktivlardagi salmog'i	12,2	11,8	13,1	12,7	12,5
	Umumiy tarmoq bo'yicha salmog'i	18,7	17,6	19,8	20,5	21,7

Mazkur jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tovar-moddiy xazinalar salmog'i umumiy aktivlarning oshishiga qarab o'zgarib borgan. Xususan, "Quvasoytsement" AJ umumiy aktivlar hajmi oshishiga mos ravishda tovar-moddiy xazinalar ham oshganligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni 2019-yilda umumiy aktivlar qiymati 228150 mln. so'm bo'lganda tovar-moddiy xazinalar ulushi 25,9 %ni, 2023-yilda umumiy aktivlar qiymati 286473 mln.so'm bo'lganda tovar-moddiy xazinalar ulushi 26,3 %ni tashkil etganligini ko'rishimiz mumkin. Boshqa subyektlar bo'yicha ham xuddi shunday xulosaga kelish mumkin.

Tovar-moddiy xazinalar xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida doimiy ravishda ta'minlab turish zaruratini keltirib chiqaradi. Ya'ni ishlab chiqarish jarayonining uzviyligini ta'minlaydi. Shu bilan birga ortiqcha tovar-moddiy xazinalarni omborxonada, ishlab chiqarish joylarida saqlash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni tejash imkonini beradi. Ushbu masalada Qozog'iston tajribasini tadqiq etishda umumiy schyotlar rejasiga ko'ra, alohida 1300-"Zaxiralarni" bo'limida quyidagi schyotlar bo'yicha hisobga olish tartibi belgilanganligini ko'rsatdi. Ya'ni:

- 1310—"Homashyo va materiallar";
- 1320—"Tayyor mahsulotlar";

- 1330—"Tovarlarni";
- 1340—"Tugallanmagan ishlab chiqarish";
- 1350—"Boshqa xazinalar";
- 1360—"Zaxiralarni hisobdan chiqarish bo'yicha rezervlar"⁸.

Ushbu masalada asosiy e'tibor tovar-moddiy xazinalarning to'g'ri hisobini tashkil etishga qaratilganligini ko'rish mumkin. Chunki tovar-moddiy xazinalar hisobini to'g'ri yuritish mahsulot tamarximi iqtisodiy jihatdan asoslangan holda aniqlash imkonini beradi. Fikrimizcha, umumiy tartibda buxgalteriya hisobi amaliyotida tovar-moddiy xazinalarning quyidagi yirik turlari bo'yicha hisobga olish taklif qilinmoqda:

- xomashyo va materiallar;
- tugallanmagan ishlab chiqarish;
- tayyor mahsulot;
- tovarlar;
- boshqa materiallar.

Natijada, tovar-moddiy xazinalarni ushbu tartibda hisobga olish moddiy-texnik ta'minot tizimining xavfsizligini ta'minlab, ishlab chiqarish natijasi va tugallangan ishlab chiqarish kabi omillar ta'sirini aniqlash imkonini shakllantiradi hamda uning moslanuvchanligini ta'minlaydigan omil sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Tovar-moddiy xazinalar hisobini tashkil etish amaliyoti va uni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish"ga bag'ishlangan. Ushbu bobda tovar-moddiy xazinalar harakatini hisobga olish uslubiyoti, ularning inventarizatsiyasini tashkil etishni va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida yuritishni takomillashtirish masalalari ham qarab chiqilgan.

Tadqiqot jarayonida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda tovar-moddiy xazinalarni tashib keltirish, tayyorlash va omborxonada saqlash xarajatlarini alohida maxsus ishchi schyotlarda yuritish tartibini hisob siyosatiga kiritishga doir ilmiy tavsiyalar asoslandi. Bunda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi subyektlar amaliyotidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ulardan faoliyatda foydalaniladigan tovar-moddiy xazinalar bo'yicha schyotlarini moddiy-texnika ta'minoti jarayonini hisobga olish, tovar-moddiy xazinalar tamarximi hisoblash qulay bo'lishi uchun hisob siyosatida amaliyotda foydalanish maqsadida ikkinchi variantda 1510—"Materiallarni tayyorlash va xarid qilish" schyotida emas balki 1200 raqamli bo'sh pozitsiyani "Ta'minot jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni hisobga oluvchi schetlar" deb nomlab, uning tarkibida quyidagi uchta ishchi schyotlarni hisob siyosatiga kiritishni taklif qilamiz:

- 1210—"Tashib keltirish xarajatlari";
- 1220—"Tayyorlash xarajatlari";
- 1230—"Omborxonada saqlash xarajatlari".

⁸ Финансовый учет на предприятии. Учебник. /Под ред. Р.М.Рахимбековой. - Алматы: Экономика, 2013.- 518с. С.46.

⁷Muallif tomonidan tadqiqot natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan

Ushbu ishchi schetlarda yuritish xomashyo va materiallarni tashib keltirish, tayyorlash va omborlarda saqlash xarajatlari to'g'risida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lish hamda ularni samarali nazorat qilish imkonini yaratadi.

Moddiy javobgar shaxslar tomonidan har chorak ichida tasodifan ayrim TMZlarni tekshirish ularning qoldiqlarini nazorat qilish imkonini yaratadi. Tasodifan inventarizatsiya o'tkazish TMZlarni o'zlashtirish, kamomadlarini aniqlash va ularning qoldiqlarini to'g'ri yuritish tartibini tekshirish imkonini beradi hamda bir yildan ortiq saqlab turilgan zaxiralarni aniqlashga imkoniyat yaratiladi. Ushbu masalaning muhimligi shundaki, bir yildan ortiq saqlangan TMZlar korxonaning aylanma mablag'lari noto'g'ri taqsimlanishiga va natijada pul mablag'laridan samarasiz foydalanishga olib keladi. Chunki aylanma mablag'lar operativ ravishda foydalanilishi lozim. Ushbu masala 2-sonli BHXSda alohida ta'kidlab o'tilgan "TMZlar sotilganida, ushbu zaxiralarning balans qiymati xarajat sifatida, ular bilan bog'liq bo'lgan foyda tan olinadigan davrda, tan olinishi lozim. Har qanday TMZni sof sotish qiymatigacha kamaytirish summasi va zaxiralar bo'yicha yo'qotishlar ushbu kamaytirish yoki yo'qotish ro'y bergan davrda xarajat sifatida tan olinishi lozim. Sof sotish qiymatini oshishi natijasida kelib chiqadigan TMZni kamaytirishning har qanday qayta tiklanishi summasi, xarajat bo'lib tan olingan TMZlar summasining kamayishi sifatida bunday qayta tiklash ro'y bergan davrda tan olinishi lozim".

Tadqiqot jarayonida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda TMZlarni qabul qilish va ulardan foydalanishga doir axborot ta'minot manbalari hisobni tashkil etish va tahlilni tartibga solishga oid ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida TMZni tahlil qilishning o'ziga xos xususiyatlari ularni tahlil qilishning ketma-ketligida nomoyon bo'ladi. Qachonki axborotlar haqqoniy bo'lsa, tahlil ham aniq bo'ladi. Bu esa o'z navbatida optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonini yaratadi.


TMZni xalqaro standartlar asosida tahlil qilish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

gorizontal tahlil (hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi va dinamikasi aniqlanadi);

vertikal tahlil (moliyaviy holatga taluqli bo'lgan ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o'rganiladi). Ushbu yo'nalishlarga asoslangan holda tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilish quyidagi tartib bo'yicha tashkil etishni taqozo qiladi (2-rasm).

Korxonaning tovar-moddiy zaxiralarni mutlaq ko'rsatkichlari tahlilida yangi hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi ifodalanadi. Nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida esa, tovar-moddiy zaxiralar holati ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganiladi. Masalan, korxona tovar-moddiy zaxiralari va

ularning manbalari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar hamda ulardan foydalanish o'rtasidagi aloqa bilan ifodalanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning omili tahlilida unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil qilinadi.



2-rasm. Tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilish yo'nalishlari¹⁰

Tadqiqotlar natijasida TMZlar hisobini xalqaro standartlar asosida baholashni tashkil etish xususiyatlarini inobatga olib, moliyaviy hisobotni shakllantirish va ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish yuzasidan takliflar asoslangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4611-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2022-yil 9-dekabrda 3400-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi buyrug'i qurilishmateriallari uyushmasi tarkibidagi ishlab chiqarish korxonalarida TMZ hisobi va tahlilini tashkil etish uchun me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlardan biri-zaxiralarni hisobga olish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalasidir. Respublikamizda tovar-moddiy zaxiralarni hisobda aks ettirish va ularni baholash tartibi 4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli buxgalteriya hisobining milliy standarti orqali tartibga solinadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti esa 2-sonli "Zaxiralar" nomli BHXS bilan tartibga solinadi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobini yanada takomillashtirishda BHMSni moliyaviy hisobot xalqaro

⁹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining 2022- yil 10- noyabrda "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 61-sonli buyrug'ining 3-ilovasi

¹⁰Muallif tomonidan tadqiqot natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan

standartlari asosida tashkil qilish va yuritish bugun obyektiv zaruratdir. Bularning qiyosiy tahlili quyida o'z aksini topgan (2-jadval).

Milliy va xalqaro standartlarda tovar-moddiy zaxiralar hisobining qiyosiy tahlili¹¹

Hisob obyektlari Maqsadi	4-sonli "Tovar-moddiy zaxiralar" nomli BHMS	2-sonli "Zaxiralar" nomli BHXSda
	Yuridik shaxsga mulk huquqida tegishli bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarning buxgalteriya hisobi uslubiyati va moliyaviy hisobotda aks ettirilishini belgilash hisoblanadi. TMZlarni hisobga olishning asosiy qoidalarini quyidagilar hisoblanadi: tan olish vaqtida belgilash, tasniflash, balans qiymatini baholash; TMZ tan-narxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, shu jumladan xarajat sifatida TMZ qiymatini keyinchalik tan olish; tovar-moddiy zaxiralar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish; ularning chiqib ketishi moliyaviy natijalarni, shuningdek ular bo'yicha axborotni moliyaviy hisobotda yoritish tartibini aniqlash	TMZlarni hisobga olish tartibini belgilashdir. TMZlarni hisobga olishda asosiy masala bo'lib, ularning tannarxi qanday summada aktiv sifatida tan olinishi va ular bilan bog'liq bo'lgan foydalar kelgusi davrlarda tan olinguncha hisobga olinishi kerakligi hisoblanadi. Tannarx va uning keyinchalik xarajat sifatida tan olinishi, shu jumladan uning har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo'yicha ko'rsatma-larni beradi. U, shuningdek, TMZ larning tannarxini aniqlashda qo'llaniladigan tannarxni hisoblash formulalari bo'yicha ko'rsatmalarni keltiradi
Tovar-moddiy zaxiralar – bu quyidagi aktivlardir	- mahsulot ishlab chiqarish (ish va xizmat) lar, unga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan xomashyo va materiallar, xarid qilinadigan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, tara va tarabop materiallar, ehtiyot qismlar, inventar va xo'jalik jihozlari, boshqa materiallar zaxiralari; - boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar; - mexanizm qismlari, qurilmalar, buyum-larga tugallanmagan ishlov berilishi va ularning yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida tugallanmagan ishlab chiqarish; - tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot, boshqa odatiy faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar	- odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan; - bunday sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan; - ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatishida foyda-lanilishi ko'zlangan xomashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlar
TMZlar tannarxi	- sotib olish xarajatlari; - qayta ishlab xarajatlari; - boshqa xarajatlari	- sotib olish xarajatlari; - qayta ishlab xarajatlari va ularni hozirgi paytdagi joylashishi; - boshqa xarajatlari

¹¹Muallif tomonidan tadqiqot natijalari bo'yicha ishlab chiqilgan.

Sotishning sof qiymati	TMZlarni maqsadiga ko'ra ishlatiladigan holatga keltirish va sotish bo'yicha baholangan xarajatlari chegirilgan holda joriy qiymati	2-jadval davomi
		Bu odatdagi faoliyat davomida ishlab chiqarishni oxiriga yetkazish bo'yicha xarajatlari va sotishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va taxminiy baholangan xarajatlari (yetkazib berish va savdo agenti xizmatlari) chegirib tashlangan sotish bahosidir

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, xalqaro va milliy standartlarni solishtirish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin. Milliy standartda TMZlarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlari uning xarid qiymati (yetkazib beruvchiga to'lanadigan summalar)dan ajratilgan holda ko'rsatilgan. Xalqaro standartda esa, bu bitta, ya'ni zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlari moddasida ko'rsatilgan. Shuningdek, zaxiralarni xarid qilish bilan bog'liq xarajatlari bilan ularni joriy holatga va joriy joylashtirish joyiga yetkazish bilan bog'liq boshqa xarajatlari tushunchalarini farqlash lozim.

Keyingi muhim masala har bir qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanish taklif etiladi.

$$U_{nq} = F_{nich} \cdot H_{nich} \quad (1)$$

Bu yerda, U_{nq} – normadagi quvvatdan foydalanish darajasi;

F_{nich} – haqiqiy ishlab chiqarish hajmi;

H_{nich} – meyor bo'yicha ishlab chiqarish hajmi.

